

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDURAXMANOV ABDUAZIM DJALALITDINOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI
STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора экономических наук (DSc)

Contents of dissertation the abstract Doctor of Economic Sciences (DSc)

Abduraxmanov Abduazim Djalalitdinovich

О‘zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik o‘rganish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Абдурахманов Абдуазим Джалалитдинович

Совершенствование методологии статистического изучения демографических процессов населения Узбекистана..... 37

Abdurakhmanov Abduazim Djalalitdinovich

Improving the Methodology of Statistical Research on Demographic Processes in Uzbekistan 75

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 81

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDURAXMANOV ABDUAZIM DJALALITDINOVICH

**O‘zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik o‘rganish
metodologiyasini takomillashtirish**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/Iqt404 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdu.uz
hamda «Ziynet» axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy maslahatchi: Begalov Baxodir Abdulalomovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Kenjabayev Aman Turg'unovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.123.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «10» 06 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; -mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-28-72; e-mail: tsue@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «20» 05 kuni tarqatildi.
(2026 yil «20» 05 dagi 26 - raqamli reestr bayonnomasi)



S.K.Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E.Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahon miqyosida demografik jarayonlarni statistik baholash va modellashtirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda, asosan, demografik jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ko'p omilli statistik tahlil yordamida o'rganish, shuningdek, mehnat resurslarining shakllanishida demografik ko'rsatkichlarning o'rnini belgilash masalalariga e'tibor qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, "dunyo aholisi 8,09 milliard kishini tashkil etdi. 2024-yilda aholi soni 71 milliondan ortiq kishiga ko'paydi. 2024-yil uchun dunyo aholisi 75 million kishiga o'sgan 2023-yilga nisbatan bir oz past edi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yil yanvar oyida dunyo bo'ylab har soniyada 4,2 tug'ilish va ikki o'lim sodir bo'ladi"¹. Bu holat dunyoda demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularni statistik baholash va istiqbolini aniqlash zaruratini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham demografik jarayonlarni ishonchli statistik ma'lumotlar asosida o'rganish va boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini o'tkazish orqali mamlakat aholisining soni, tarkibi, migratsiya holati, oilaviy ahvoli, iqtisodiy faolligi hamda daromad manbalari bo'yicha yagona va ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish ko'zda tutilgan. Bu esa o'z navbatida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim axborotlar manbai hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, "2026 yilning 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 38236,7 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 foizga ko'paygan. 2025 yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 879,6 ming nafarni, vafot etganlar 177,1 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 702,5 ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 1159 kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 10117 kishini, qayd etilgan nikohlar 267,1 ming birlikni, nikohdan ajralishlar 46,9 ming birlikni tashkil etgan"².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning asosiy maqsadlari sifatida : - "Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun 38 million aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to'g'risida Yevropa statistikasi konferensiyasining 2020-yildagi tavsiyalari asosida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, 26 million gektar qishloq xo'jaligi erlarining foydalanish holatini o'rganish, chorva mollari va parrandalar sonini aniqlash orqali qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan yillik 25,6 trillion so'm, jumladan, 2,2 trillion so'm budjet mablag'lari samarali sarflanishini, sohadagi xizmatlar hajmini aniqlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur

¹ United Nations ma'lumotlari // [Wikipedia Uzbek](#)

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika ma'lumotlari // [Stat.uz rasmiy sayti](#)

ma'lumotlar to'plamini yaratish"³ – zaruriyati to'g'risida ta'kidlab o'tganlari be'jiz emas. Mazkur yo'nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, statistika tizimini takomillashtirish, aholini ro'yxatga olishni tashkil etish, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan farmon va qarorlar demografik tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshiradi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularni statistik asosda baholash hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi «Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-27-sonli, 2025-yil 19-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida» gi PF-173-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida» gi PF-158-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-75-sonli, 2020-yil 3-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4796-sonli Qarorlari va sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴.

Aholi demografik jarayonlarini ko'p omilli statistik tahlil etish, demografik rivojlanishni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish, aholi takror barpo bo'lishi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya va mehnat resurslari dinamikasini baholash hamda demografik prognozlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamda olib borilmoqda. Jumladan, ushbu yo'nalishdagi izlanishlar Stanford University, Princeton University, Harvard University (AQSH), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Taylor's University (Malayziya), Gazi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. «O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida»gi PF-173-son Farmoni. – 2025-yil 19-sentabr.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSH), Harvard University (AQSH), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti (Rossiya) va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

University (Turkiya) kabi nufuzli ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, MDH va Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti tomonidan aholi demografiyasi va statistik tahlilga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Globalashuv sharoitida aholi demografik jarayonlarining murakkablashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirining kuchayishi hamda migratsiya oqimlarining jadallashuvi natijasida demografik jarayonlarni chuqur statistik va ekonometrik usullar asosida o'rganish zarurati ortib bormoqda. Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator muhim ilmiy xulosalar va metodologik yondashuvlar shakllantirilgan. Jumladan, aholi o'sishi va takror barpo bo'lish jarayonlarini ko'p omilli modellar asosida baholash, demografik jarayonlarning hududlar kesimidagi farqlanishini aniqlash, aholi tarkibi va harakatini integral statistik ko'rsatkichlar orqali baholash uslublari takomillashtirilgan (Stanford University, Princeton University, Universidad de Las Palmas de Gran Canaria, University of Münster).

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda aholi statistikasi bo'yicha xalqaro standartlardan (BMT, Jahon banki, OECD metodologiyalari) foydalanish, demografik ma'lumotlar sifatini oshirish, ro'yxatga olish va tanlanma kuzatuv natijalarini uyg'unlashtirish masalalari asoslab berilgan (Korea Development Institute). Ayrim tadqiqotlarda demografik jarayonlar va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, bandlik, daromadlar darajasi) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ekonometrik modellar yordamida aniqlangan (Gazi University, Turkiya).

Bugungi kunda xalqaro miqyosda yuz berayotgan demografik o'zgarishlar, migratsiya jarayonlarining jadallashuvi va raqamli statistik texnologiyalarning rivojlanishi har bir ilmiy tadqiqotda xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan demografiya sohasida quyidagi asosiy yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda:

- aholi soni, tarkibi va harakati bo'yicha ko'rsatkichlarni xalqaro metodologiyalar asosida standartlashtirish;
- migratsiya jarayonlari va mehnat resurslari shakllanishining statistik baholash usullarini takomillashtirish;
- demografik jarayonlarni prognozlashda ko'p omilli va stoxastik modellarni qo'llash;
- demografik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data) va geografik axborot tizimi (GIS) asosidagi statistik tahlillardan samarali foydalanish.

Mazkur xorijiy ilmiy-tadqiqotlar natijalari O'zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik o'rganish metodologiyasini takomillashtirish, demografik ma'lumotlarni tahlil qilish aniqligi va ishonchligini oshirish hamda ilmiy asoslangan demografik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Demografik jarayonlarning statistik tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalar qator mamlakatlarda, jumladan, AQSh, Germaniya, Rossiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda keng miqyosda

olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda aholining tabiiy harakati, migratsiya oqimlari, yosh va jins tarkibining dinamikasi, mehnat resurslarining shakllanishi kabi masalalar ko'p omilli tahlil metodlari orqali o'rganilgan.

Demografik jarayonlarning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha J.Graunt, A.Giyyar, U.Petti, R.Tomlinson, S.Altorjai, R.Lowenstein, J.Bertil'on, K.Spielauer, S.Castles, de Haas H., M.Miller, R.Harper, T.Wilson, D.Coleman, P.Rees, A.Portes, R.Rumbau, Juha M kabi ko'plab taniqli xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan⁵.

Aholi demografik jarayonlarini statistik o'rganish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bir qator MDH davlatlari olimlari E.Rosset, A.Sovi, Ye.Tyera, D.Valentey, I.Kalinyuk, L.Chuyko, T.Domenik, L.Mishel, K.Irina, K.Nivel, A.Akani, A.Ravinsankar, Sh.Mziya, G.Baxmetova, L.Ivankova, G.Safarovalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan⁶.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi, demografik prognozlash usullari, aholining hududiy taqsimoti va migratsiya jarayonlarini baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu bilan birga, aholining sifat tarkibini aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimini yangilash, demografik siyosat samaradorligini baholash va zamonaviy statistik modellarni joriy etish masalalari hanuz dolzarbdir. O'zbekistonda Aholi demografik jarayonlarini, statistik o'rganish metodologiyasini statistik tadqiq etish va ekonometrik modellashtirish masalalari M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, N.M.Soatov, X.Nabiyev, E.A.Akramov, R.A.Ubaydullayeva, O.B.Ata-Mirzayev, Q.X.Abduraxmonov, S.S.G'ulomov, B.B.Berkinov, B.Y.Xodiyev, Sh.Xolmo'minov, B.A.Begalov, D.M.Rasulev, B.K.G'oyibnazarov, B.B.Usmonov., X.Dj.Xujakulov B.X.Umurzaqov, A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, L.P.Maksakova, A.H.Ayubjonov, Z.T.Yuldoshev, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva,

⁵ John Graunt. *Естественные и политические наблюдения, сделанные над бюллетенями смертности*. – London, 1662; Achille Guillard. *Éléments de statistique humaine ou démographie comparée*. – Paris, 1855; William Petty. *Political Arithmetick*. – London, 1683; Richard Tomlinson. *Emerging Johannesburg: Perspectives on the Postapartheid City*. – London; New York: [Routledge](#), 2013; Sándor Altorjai. *Overqualification of Immigrants in the UK*. – Colchester: Institute for Social and Economic Research, University of Essex, 2013; Roger Lowenstein. “The Immigration Equation” // *The New York Times Magazine*. – July 9, 2006; Jacques Bertillon. *Statistique du mouvement de la population en France*. – Paris, 1881; Niccolò Machiavelli, Jean Bodin. *Les Six livres de la République*. – Paris, 1577; Kurt Spielauer. *Demographic Microsimulation and Data Integration for Population Policy Analysis*. – Vienna: Austrian Institute of Demography, 2021. – 212 p.; Stephen Castles, Hein de Haas, Mark J. Miller. *The Age of Migration*. – 6th ed. – London: [Palgrave Macmillan](#), 2020; David Coleman, Philip Rees. “The Integration of Administrative and Census Data for Population Statistics” // *Population Studies*. – 2019. – Vol. 73, No. 4. – P. 455–472; Alejandro Portes, Rubén G. Rumbaut. *Immigrant America: A Portrait*. – 4th ed. – Berkeley: [University of California Press](#), 2014; Juha M. Alho, Bruce D. Spencer. *Statistical Demography and Forecasting*. – New York: [Springer](#), 2014. – 575 p.

⁶ Edward Rosset. *Процесс старения населения: Демографическое исследование*. – М., 1968; *Продолжительность человеческой жизни*. – М., 1981; Alfred Sauvy. *Общая теория населения*. – М.: Прогресс, 1977; Dmitry Valentey. *Изучение народонаселения: вопросы методологии*. – М., 1987; Leonid Chuiko. *Браки и разводы (демографическое исследование на примере Украинской ССР)*. – Киев; G. Sh. Bakhmetova. *Современные проблемы старения населения в России и европейских странах*. – Ростов н/Д: РГЭУ, 2000. – 55 с.; L. V. Ivankova и др. *Современные проблемы старения населения в России и европейских странах*. – Ростов н/Д: РГЭУ, 2000. – 55 с.; G. L. Safarova. *Лаборатория анализа и моделирования социально-демографических процессов*.

X.X.Abduramanov, T.M.Axmedov, D.M.Karimova, F.K.Komilova kabi mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan⁷.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalarda demografik jarayonlarning umumiy qonuniyatlari chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, globallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasida aholining demografik jarayonlari, turli ijtimoiy indikatorlar asosida demografik holatni kompleks statistik baholash hamda hududlar kesimida demografik jarayonlarni tartibga solish va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari etarlicha yoritilmagan. Mazkur holat mamlakatimizda demografik rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlarini, ularning iqtisodiy tizim bilan o'zaro ta'sirini, shuningdek, demografik jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini ilmiy asosda chuqur o'rganish zaruratini ko'rsatadi. Shu bois, tanlangan dissertatsiya mavzusi mavjud bo'shliqni to'ldirishga, demografik jarayonlarni kompleks statistik yondashuv asosida baholash va prognozlashga qaratilgan yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi..

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik baholashni xalqaro tavsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodologik taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁷ M.K. Karakhanov. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. – Ташкент, 1983; I. R. Mullajonov. Демографическое развитие Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – 169 с.; R. Ubaydullaeva, O. Ata-Mirzaev, N. Umarova. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. – Ташкент: Университет, 2006. – 58 б.; Q. K. Abdurakhmanov, N. K. Zokirova va boshq. Демография. Дарслик. – Ташкент: Iqtisodiyot, 2014. – 364 б.; S. S. Gulyamov va boshq. Совершенствование капитала мозга в цифровой трансформации образования Узбекистана. – 2020; B. V. Berkinov. Эконометрика: ўқув қўлланма. – Ташкент, 2015; B. Begalov. Сколько нас? Определить перепись // Народное слово. – 24.04.2020; D. M. Rasulov. Введение в динамику общего экономического равновесия // M.S. in socio-economics: curricula development. – 2006. – P. 1–85; B. K. G'oyibnazarov. O'zbekiston hududlarida aholi bandligi holatini statistik baholash // O'zbekiston statistika axborotnomasi. – 2022. – №1; B. V. Usmonov, A. D. Abdurakhmonov. Aholi statistikasi: darslik. – Tashkent: TDIU, 2019. – 173 b.; X. D. Xujakulov va boshq. O'zbekiston Respublikasida demografik vaziyatning holati va o'ziga xos xususiyatlari // Moliya ilmiy jurnali. – 2024. – №6. – 149–156 b.; B. X. Umurzakov. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy xususiyatlari: monografiya. – Tashkent: Lesson Press, 2017. – 188 b.; A. A. Qayumov va boshq. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2011. – 160 b.; A. Soliyev, M. R. Boriyeva. Qishloq joylari demografiyasi. – Toshkent, 2005; L. P. Maksakova. Миграция населения Республики Узбекистан. – Tashkent: Эльдинур, 2000. – 116 с.; A. H. Ayubjonov, B. Sh. Akbarova. Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma. – Tashkent: Iqtisodiyot, 2021. – 160 b.; Z. Yuldoshev, D. Begalov. Demographic process: changes and trends // Exchange. – 2021. – №20. – P. 1–2; M. R. Boriyeva. O'zbekistonda oila demografiyasi. – Tashkent: Universitet, 1997. – 117 b.; M. R. Boriyeva. Demografiya asoslari: o'quv qo'llanma. – Tashkent: Universitet, 2001. – 48 b.; Z. N. Tojiyeva. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylashishi (1989–2009 yy.): monografiya. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2010; Z. N. Tojiyeva. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari: DSc avtoreferati. – Toshkent, 2017. – 59 b.; X. X. Abduramanov, N. U. Arabov, M. M. Kholmukhammedov. Aholi daromadlari va turmush sifati. – Tashkent: Ilm-Ziyo, 2014. – 256 b.; T. M. Akhmedov, B. S. Abdullaev. Социально-демографические особенности устойчивого развития сельских территорий Узбекистана. – Tashkent: NISO POLIGRAF, 2018. – 152 s.; D. M. Karimova. Hududlarni kompleks baholashning ijtimoiy-demografik jihatlari. – Tashkent: Yurist-media markazi, 2020. – 108 b.; F. Kamilova. Демографический потенциал Узбекистана. – Tashkent: O'zbekiston, 1991. – 143 b.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

aholi demografik jarayonlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini ochib beruvchi nazariy qarashlarni tizimlashtirish va ilmiy umumlashtirish;

aholining tabiiy hamda mexanik harakatini statistik o'rganishga oid nazariy-uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish;

demografik ko'rsatkichlarni statistik o'rganish usullarining evolyutsiyasini o'rganish, xorijiy tajribani tahlil qilish asosida milliy demografik statistikaning rivojlantirish istiqbollari asoslash;

demografik jarayonlarni statistik tahlil qilishda foydalaniladigan axborot manbalari va ma'lumotlarni integratsiyalashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

O'zbekiston aholisining demografik jarayonlarini hududlar kesimida klaster tahlili asosida statistik o'rganish uslubiyatini takomillashtirish;

O'zbekiston aholisining demografik tuzilmasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni statistik ko'rsatkichlar asosida aniqlash va baholash;

respublikada aholi tug'ilish jarayonining darajasi, dinamikasi va hududiy farqlarini statistik jihatdan tahlil qilish;

O'zbekiston aholisining yosh-jins tarkibi va aholi tuzilmasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar asosida asosiy demografik tendensiyalarni aniqlash;

O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining hajmi, yo'nalishlari va tarkibini statistik tahlil qilish orqali ularning demografik jarayonlarga ta'sirini baholash;

tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini baholashda qo'llaniladigan zamonaviy statistik va ekonometrik yondashuvlarni ilmiy asoslash;

qishloq va shahar aholisida kechayotgan demografik jarayonlarni ekonometrik modellar asosida tahlil qilish va taqqoslash;

O'zbekistonda aholi demografik jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ko'p omilli regressiya modellarini ishlab chiqish;

aholining tug'ilish va o'lim jarayonlarini prognozlash bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirish;

demografik jarayonlarning asosiy ko'rsatkichlarini ARIMA modeli yordamida qisqa va o'rta muddatli prognozlash;

aholi takror barpo bo'lishini tavsiflovchi sof demografik ko'rsatkichlar bo'yicha istiqbol prognozlarini ishlab chiqish;

o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik o'rganishni xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodologik takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi aholisi tanlab olingan bo'lib, u demografik jarayonlarning rivojlanishi, aholining tabiiy harakati, migratsiya oqimlari va ijtimoiy tarkibiy o'zgarishlari bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi.

Tadqiqotning predmeti esa O'zbekistonda aholining demografik holatini statistik tahlil qilish, baholash va prognozlash jarayonlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat bo'lib, uning doirasida demografik

ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri hamda prognozlashning amaliy mexanizmlari ilmiy asosda o'rganiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida zamonaviy ilmiy-tadqiqot yondashuvlaridan kompleks tarzda foydalanilgan. Jumladan, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, empirik baholash, tizimli yondashuv, statistik kuzatish, guruhlash, dinamika qatorlarini tahlil qilish, iqtisodiy indekslar tizimi, korrelyatsion va regressiya tahlili, statistik jadval va grafiklardan foydalanish, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "demografik ma'lumotlar sifatini ta'minlash mexanizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni statistika, sog'liqni saqlash, migratsiya va ta'lim axborot tizimlarining kross-platformal muvofiqligini ta'minlash, ma'lumotlar o'rtasidagi tafovutlarni avtomatik aniqlash va ularning validlik hamda reprezentativlik darajasini oshirish nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan;

tug'ilishning yig'indi koeffitsientini tahlil qilish uslubi unga ta'sir etuvchi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro elastiklik darajasini miqdoriy baholash hamda shahar va qishloq o'rtasidagi demografik tafovutining 0,05 gacha bo'lgan qiymati "kam", 0,05 - 0,10 oralig'i "mo'tadil" va 0,10 dan yuqori qiymati "sezilarli" tafovut sifatida belgilash orqali takomillashtirilgan;

hududlarning demografik salohiyatini baholash uslubi ularni ko'p o'lchovli demografik ko'rsatkichlar asosida klassifikatsiyalash, tipologik guruhlash va har bir hududiy klaster uchun tabaqalashtirilgan demografik strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beruvchi klaster tahlilini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligi, ta'sir kuchi va hududiy farqlanish darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi ko'p omilli regressiya modellariga asoslangan demografik barqarorlik, reproduktiv omillar ta'siri hamda hududiy demografik sezgirlik indekslarining "past" (0,00 - 0,39), "o'rtacha" (0,40 - 0,69), "yuqori" (0,70 - 1,00) darajalardagi chegaraviy qiymatlari asoslangan;

demografik jarayonlarning dinamik qonuniyatlari va aholi tarkibining evolyusion o'zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda, ARIMA modeli ssenariylari asosida O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining 2029-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

demografik ma'lumotlarni integratsiyalashning zamonaviy yondashuvi ma'lumotlarni sinxronlash, tozalash va verifikatsiya qilish asosida statistikani integratsiyalashning metodologik asoslari takomillashtirilib, ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi institutsional uzilishlarni bartaraf etishning ilmiy mexanizmlari, demografik jarayonlarni tizimli yondashuv asosida baholash konsepsiyasini rivojlantirish asoslab berilgan;

aholi rivojlanishining ko'p o'lchovli ko'rsatkichlari asosida hududlarni tipologik jihatdan guruhlash imkonini beruvchi klaster tahlilini demografik

tadqiqotlarga moslashtirish uslubiyati orqali demografik, ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni birlashtirgan holda kompleks statistik baholash imkoni yaratilgan;

qishloq va shahar kesimida demografik omillarning tug'ilish koeffitsientiga ta'siri panel ma'lumotlar asosida ilmiy jihatdan kompleks ekonometrik model shakllantirilib, demografik omillarning vaqt va hudud kesimidagi dinamik ta'siri ilmiy jihatdan isbotlangan;

tadqiqot ishi doirasida demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi asosiy omillar (tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, migrasiya saldos, aholi daromadlari, bandlik darajasi, uy-joy bilan ta'minlanish va boshqalar) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida ko'p omilli regressiya modellari tuzilib, aholi o'sishiga ta'sir etuvchi omillarning hududlar kesimida demografik vaziyatni kompleks statistik baholash imkoniyati yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni dinamikasiga ARIMA modeli parametrlari tanlanib, vaqt qatorlaridagi trend va siklik komponentlarni ajratish orqali aholi sonining prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi avvalo, unda qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va tahlil usullarining aniqligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida foydalanilgan barcha statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasining rasmiy bazalaridan olingan. Shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa va amaliy takliflar tegishli tashkilotlar faoliyatida sinov tariqasida qo'llanilib, ularning samaradorligi tasdiqlangan. Olingan natijalar matematika, statistika va ekonometrika fanlarining ilmiy asoslariga tayangan holda tizimli tahlil, modellashtirish va prognozlash usullari yordamida o'rganilgan. Natijada, tadqiqotda erishilgan xulosalar metodologik jihatdan asoslangan, empirik dalillar bilan tasdiqlangan hamda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan xulosalarning nazariy asoslanganligi, demografik jarayonlarni iqtisodiy-statistik tahlil qilishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Unda aholining iqtisodiy faoliyat turlari, hududiy demografik jarayonlar hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu natijalar mamlakat miqyosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining "yo'l xaritalari"ni tayyorlash, shuningdek, maqsadli davlat dasturlarini shakllantirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot davomida ishlab chiqilgan amaliy taklif va xulosalardan kelgusida aholi farovonligini oshirish, demografik jarayonlarni tartibga solish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini yaratishda, davlat va hududiy darajadagi demografik siyosatni takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashda, shuningdek, oliy ta'lim tizimida "Aholi statistikasi", "Ijtimoiy statistika", "Ekonometrika" kabi fanlarning o'quv dasturlari, keys-stadi materiallari va o'quv-uslubiy majmualarini yaratishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholining demografik holatini statistik baholashni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "demografik ma'lumotlar sifatini ta'minlash mexanizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini statistika, sog'liqni saqlash, migratsiya va ta'lim axborot tizimlarining kross-platformal muvofiqligini ta'minlash, ma'lumotlar o'rtasidagi tafovutlarni avtomatik aniqlash va ularning validlik hamda reprezentativlik darajasini oshirish nuqtai-nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Aholi statistikasi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi "500" - sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda axborot tizimlarning kross-platformal muvofiqligini ta'minlash nuqtai-nazaridan takomillashtirilgan "demografik ma'lumotlar sifatini ta'minlash mexanizmi" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarini kengaytirish imkoni yaratilgan;

tug'ilishning yig'indi koeffitsientini tahlil qilish uslubi unga ta'sir etuvchi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro elastiklik darajasini miqdoriy baholash hamda shahar va qishloq o'rtasidagi demografik tafovutining 0,05 gacha bo'lgan qiymati "kam", 0,05 - 0,10 oralig'i "mo'tadil" va 0,10 dan yuqori qiymati "sezilarli" tafovut sifatida belgilash orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-dekabrda 06/02/12-588-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida tug'ilishning yig'indi koeffitsientini tahlil qilish uslubini unga ta'sir etuvchi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda shahar va qishloq o'rtasidagi demografik tafovut orqali takomillashtirish imkoni yaratilgan;

hududlarning demografik salohiyatini baholash uslubi ularni ko'p o'lchovli demografik ko'rsatkichlar asosida klassifikatsiyalash, tipologik guruhlash va har bir hududiy klaster uchun tabaqalashtirilgan demografik strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beruvchi klaster tahlilini joriy etish asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-dekabrda 06/02/12-588-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonning demografik rivojlanish hududlari bo'yicha yangi tipologik guruhlanish modeli ishlab chiqilib, hududlararo taqqoslashni soddalashtirish va demografik siyosatni ilmiy asoslash imkonini bergan;

demografik jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligi, ta'sir kuchi va hududiy farqlanish darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi ko'p omilli regressiya modellariga asoslangan demografik barqarorlik, reproduktiv omillar ta'siri hamda hududiy demografik sezgirlik indekslarining "past" (0,00 - 0,39), "o'rtacha" (0,40 - 0,69), "yuqori" (0,70 - 1,00) darajalardagi chegaraviy qiymatlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik

vazirligi amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-dekabrda 06/02/12-588-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholining demografik jarayonlaridagi o‘zgarishlarni kompleks baholash hamda yig‘ma statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish imkonini bergan;

demografik jarayonlarning dinamik qonuniyatlari va aholi tarkibining evolyusion o‘zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda, ARIMA modeli ssenariylari asosida O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisining 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 30-dekabrda 06/02/12-588-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida ko‘p omilli regressiya va ARIMA modeli birgalikda demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, o‘zgarishlarni kompleks baholash va kelajakdagi tendensiyalarni ilmiy asosda prognoz qilish hamda demografik siyosatni samarali shakllantirish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ishlar, shulardan 1 ta monografiya, 8 ta mahalliy jurnallarda 6 ta xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar, shuningdek, 7 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamida ma‘ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tuzilmasi kirish, beshta bob, 15 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning hajmi 260 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Aholi demografik jarayonlarini statistik tahlil etishning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, unda demografik jarayonlar tushunchasi va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Bobda aholi tabiiy harakati va migratsiya jarayonlarini o‘rganishning nazariy tamoyillari, ularni statistik baholash usullari hamda demografik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullarining evolyutsiyasi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida demografik statistikaning rivojlantirish istiqbollari, zamonaviy tendensiyalar va ilg‘or mamlakatlar tajribasidan foydalanish yo‘nalishlari tahlil etilgan.

Hududlarni barqaror rivojlantirishda demografik jarayonlarni statistik baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlar nafaqat aholi soni va tarkibi, balki

iqtisodiy salohiyat, mehnat bozori, ijtimoiy infratuzilma va ekologik holat bilan chambarchas bog‘liq. BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida tabiiy o‘shish, migratsiya, urbanizatsiya va yosh-jins tarkibi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida belgilanadi.

Yevropa Ittifoqida Eurostat metodologiyasi asosida NUTS (Nomenclature of Territorial Units for Statistics) tizimi orqali hududiy darajada batafsil demografik tahlil olib boriladi. Shuningdek, aholini ro‘yxatga olish, ma‘muriy registrlar va boshqa manbalar integratsiyasi hamda geoaxborot tizimlari texnologiyalaridan foydalanish ma‘lumotlarning aniqligi va tezkorligini ta‘minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya) markazlashgan registrlar, mikrodarajadagi tahlil, raqamli identifikatsiya va qarish jarayonlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun esa demografik ma‘lumotlarni hududiy darajada chuqurlashtirish, yagona axborot tizimini yaratish hamda geoaxborot tizimlari va sun‘iy intellektdan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Shu asosda demografik statistikaning takomillashtirish hududlarni samarali va barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda global jarayonlar butun dunyoga ta‘sir qilayotgani kabi, demografik jarayonlarga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlar iqtisodiy qiyinchiliklar, ekologik muammolar va boshqa sharoitlar tufayli oila a‘zolari sonini rejalashtirish va aholining o‘shish sur‘atini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni qo‘llamoqdalar. Boshqa tomondan, iqtisodiy barqaror o‘shishini rag‘batlantirishga intiluvchi davlatlar ham mavjud.

Bizning fikrimizcha, aholi sonining izchil o‘shishi yuqoridagi bandlik va

1. Yangi ish o‘rinlarining asosan sanoat va qishloq xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tarmoqlarda shakllanishi qishloq joylarda bandlik muammosini kuchaytirib, mehnatga layoqatli aholining muhim qismi qo‘shni davlatlarga

2. 2010–2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni izchil ravishda ortib bordi, bu jarayon yuqori tabiiy ko‘payish va yoshlar ulushining katta bo‘lishi bilan izohlanadi.

3. Tug‘ilishlar sonining vafot etganlar sonidan sezilarli darajada yuqori qayd etilishi natijasida tabiiy o‘shish ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib qoldi, bu esa demografik barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ldi.

4. O‘zbekiston demografik jarayonlari bir tomondan aholining izchil o‘shishi va ijobiy tabiiy ko‘payish bilan tavsiflanayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bandlik muammolari va migratsiya oqimlarining faollashuvi bilan murakkablashmoqda. Shu bois ham, kelgusida demografik siyosatni iqtisodiy rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, aholining takror barpo bo‘lishi murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, u sotsiologiya, demografiya, gerontologiya, psixologiya, iqtisod, falsafa, tarix, tibbiyot va statistika kabi bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladi. Har bir fan ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini, o‘z predmet doirasidan kelib chiqib tahlil qiladi. Masalan, falsafa aholining takror barpo

bo'lishini tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari tizimida ko'rib chiqadi. Sotsiologiya esa ushbu jarayon natijasida shakllangan demografik guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik muhit bilan o'zaro munosabatini tahlil qiladi. Demografiya esa tug'ilish, o'lim, migratsiya va ijtimoiy o'zgarishlarning statistik ko'rsatkichlarini o'rganib, ularning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini aniqlaydi.

Demografik statistikada aholining takror barpo bo'lishi uch asosiy turga ajratiladi. Bu tasnif demografik jarayonlarning mohiyatini chuqurroq anglash, aholi sonining o'sishi yoki kamayishi dinamikasini tahlil qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega, ya'ni:

1. Tor takror barpo bo'lish turi. Bu tur mohiyatiga ko'ra shuni anglatadiki, jamiyatda hayotni tark etayotgan avlod soni yangi tug'ilayotgan avlod miqdoridan ko'proq bo'ladi. Aholi sonining bunday shaklda qayta tiklanishi odatda tabiiy o'sish nol darajaga teng yoki o'lim ko'rsatkichlari tug'ilish darajasidan yuqori bo'lgan mamlakatlarda kuzatiladi.

2. Muqim (oddiy) takror barpo bo'lish turi. Bu holatda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari o'zaro muvozanatga keladi, tabiiy o'sish esa past darajada saqlanadi. Natijada aholining umumiy soni deyarli o'zgarmaydi. Oddiy takror barpo bo'lish turi demografik barqarorlikni ifodalaydi, biroq u ham xavfsiz emas: noqulay demografik vaziyatlar yoki iqtisodiy inqirozlar ta'sirida bunday mamlakatlar "tor" takror barpo bo'lish bosqichiga o'tib ketish ehtimoli mavjud. Shu bois ham, oddiy takror barpo bo'lish turida demografik siyosatni ongli ravishda boshqarish, tug'ilish darajasini rag'batlantirish va umr davomiyligini uzaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Kengaygan takror barpo bo'lish turi. Bu hol yangi tug'ilayotgan avlod soni hayotni tark etayotgan avlod miqdoridan ko'proq bo'lib, unda tabiiy o'sishi yuqori, o'lim darajasi esa past bo'ladi. Hozirgi davrda bunday demografik holat asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlariga xosdir.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, aholining takror barpo bo'lishiga birinchi navbatda demografik omillar – aholi tarkibidagi yosh-jinsiy nisbat, reproduktiv yoshdagi ayollar salmog'i, nikoh va ajrim darajasi, vafot etish holatlari sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar demografik jarayonlarning asosiy mexanizmlarini belgilab, avlodlarning almashinuvi jarayonlarini boshqaradi.


Ilmiy kuzatishlarga ko'ra, mamlakatimizda yoshlar ulushining yuqoriligi hamda nikoh qurish darajasining ortishi aholining takror barpo bo'lish jarayonlarini ijobiy yo'nalishda belgilab bermoqda. Bu holat tug'ilish darajasining barqarorligini ta'minlab, demografik o'sishning ijobiy sur'atlarini shakllantiradi. Aholi tarkibida qariyalar ulushi ortishi esa, aksincha, kelajakda takror barpo bo'lish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Bu jarayonlar mehnat resurslarining qisqarishi, demografik yuklamaning ortishi va ijtimoiy ta'minot tizimiga bosim kuchayishi kabi oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida aholi sonining o'sishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yil 1-yanvar holatiga respublikada doimiy aholi soni 28 001,4 ming kishini tashkil etgan. Oradan 15 yil o'tib, ya'ni 2025-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 37 543,2 ming kishiga etgan.

Bu shuni anglatadiki, mazkur davr mobaynida mamlakat aholisi qariyb 9,5 million kishiga ko‘paygan. Bunday sezilarli o‘shish bir qator omillar bilan izohlanadi. Avvalo, O‘zbekistonda tug‘ilish darajasining nisbatan yuqoriligi aholi sonining tabiiy o‘shishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash tizimidagi yaxshilanishlar natijasida o‘lim darajasi kamayib, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi oshgan.

Aholi sonining ortishi urbanizatsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Yirik shaharlar, xususan Toshkent va viloyat markazlarida aholi zichligi oshib, infratuzilma, uy-joy, transport va ish o‘rinlariga bo‘lgan talab ortmoqda. Bu esa davlatdan yangi ijtimoiy dasturlar, zamonaviy uy-joy qurilishi va bandlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni talab etadi.

2010–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston aholisi sonining sezilarli darajada oshishi mamlakatning demografik salohiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi. Kelgusida ushbu o‘shishni samarali boshqarish, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash muhim vazifa bo‘lib qoladi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2010-2025-yillar bo‘yicha doimiy aholi sonining o‘zgarish dinamikasi, ming kishi⁸ (1 yanvar holatiga)

Tahlilimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida aholi bandligini tartibga solish tizimi bir nechta asosiy usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiy mexanizmlar. Iqtisodiy ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizmlar bo‘lib, ular xo‘jalik subyektlarining manfaatlarini rag‘batlantirishga qaratilgan. Bunga soliqqa tortish, imtiyozli kreditlar ajratish, ish o‘rinlarini yaratish va saqlash, kadrlarni malakali tayyorlash, innovatsion tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash, tarif va budjet siyosati vositalaridan foydalanish kiradi.

2. Tashkiliy usullar. Davlat va nodavlat bandlik markazlarini tashkil etish, tadbirkorlar va ishchilarni mehnat sohasida maslahat hamda huquqiy xizmatlar bilan ta’minlash, kasbiy ta’lim tizimida yoshlarni ishga yo‘naltirish va mehnat bozorini axborotlar bilan ta’minlash kabi chora-tadbirlarni qamrab oladi;

⁸ Rasm O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va boshqa ochiq statistik manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

3. Mehnat huquqiga oid tartiblar. Bunga ish vaqti davomiyligi, fuqaroning mehnat hayoti davri, ishchilarning huquqlarini himoya qilish, mehnat munosabatlariga oid normativlar, standartlar, cheklovlar va tavsiyalarni belgilash kiradi. Ushbu mexanizmlar orqali ishga yollash tartibi, mehnat shartnomalari, migrantlarga kvotalar, qulay sharoitlar yaratish, bandlikni qo‘llab-quvvatlash fondiga ajratmalar va ijtimoiy kafolatlar nazorat qilinadi. Shu tariqa, davlatning mehnat bozorida aralashuvi ma‘muriy usullar orqali ham amalga oshiriladi.

Yagona elektron ma‘lumotlar bazasi orqali demografik jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonlar nafaqat statistik ma‘lumotlarni shakllantirish, balki ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va aholining turmush darajasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Elektron tizimlar orqali demografik prognozlarni aniqlash, migratsiya oqimlarini kuzatish va urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, bunday tizimlar demografik siyosatni zamonaviy va samarali qilishga xizmat qiladi, ya‘ni:

1. Elektron registr tizimlari demografik jarayonlarni kuzatishda aniqlik va tezkorlikni ta‘minlab, siyosiy hamda iqtisodiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratadi.

2. Xalqaro tajribani moslashtirish Respublikamizning demografik siyosatini yanada samarali qilish, resurslarni oqilona taqsimlash va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

3. Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va fuqarolarning ishonchini mustahkamlash axborot tizimlarning barqaror ishlashida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

4. Yagona elektron ma‘lumotlar bazasi orqali demografik jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi, bu esa davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda aholi demografik jarayonlarini statistik tahlil qilishning uslubiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida demografik jarayonlarni statistik tahlil qilishda zamonaviy ma‘lumotlarni integratsiyalash usullarini joriy etish masalalari, O‘zbekistonda aholi demografik jarayonlarini klaster tahlili asosida statistik o‘rganish uslubiyatini takomillashtirish va Respublikamiz aholisi demografik tuzilmasida kuzatilayotgan o‘zgarishlarning statistik tahlili asosida statistik baholangan.

O‘zbekiston Respublikasida aholining demografik jarayonlarini chuqur statistik tahlil etishda ma‘lumotlarning uzluksizligi, ishonchliligi va xalqaro qiyosiylikni ta‘minlash maqsadida zamonaviy axborot tizimlarini integratsiyalash zaruriy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasalliklarning xalqaro tasnifi (MKB–10) standarti ma‘lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi platformasiga integratsiyalash aholining demografik rivojlanish jarayonlarini tahlil qilishning yangi bosqichini belgilab beradi. Bu jarayon nafaqat statistik ma‘lumotlarning xalqaro miqyosda solishtirilishini osonlashtiradi, balki sog‘liqni saqlash va demografik siyosatni shakllantirishda ham muhim metodologik asos yaratadi. Shuningdek, MKB–10 standartining qo‘llanilishi demografik ko‘rsatkichlarni yanada aniqroq tasniflash, ularni global tendensiyalar bilan qiyoslash va milliy demografik strategiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqishda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, mazkur muammoni bartaraf etish uchun kasalliklarning xalqaro tasnifi – (MKB–10) standartlari asosida real vaqt rejimida ishlaydigan integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. Ushbu tizimda Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatga olingan vafot etganlar haqidagi ma’lumotlar Sog’liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiy sabablarga ko’ra kodlanadi va Milliy statistika qo’mitasining avtomatlashtirilgan tizimiga uzatiladi.

Ushbu integratsiya natijasida O‘zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi tizimlari o’rtasidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida almashinuvi yagona raqamli axborot makonida uyg’unlashadi (2-rasm).

Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida O‘zbekistonning 12 ta viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Toshkent shahar kesimida to’plangan ko’p o’lchovli demografik ma’lumotlar – tug‘ilish, o’lim, migratsiya, nikoh va ajrimlar ko’rsatkichlari – chuqur statistik tahlilga tortiladi. Avvalo, demografik ko’rsatkichlar o’rtasidagi o‘zaro munosabat va ta’sir darajasi korrelyatsion tahlil yordamida baholanadi. Ushbu jarayon hududlar kesimida demografik omillar orasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Aynan ushbu bosqichda ajratilgan mustaqil va informativ ko’rsatkichlar keyinchalik *Hierarchical clustering* jarayonining asosini tashkil etadi. Natijada, klasterlash tahlilining ilmiy ishonchliligi, aniqligi va tahliliy samaradorligi ta’minlanadi.

Birinchi klasterga kiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlarining demografik ko’rsatkichlari nisbatan past qiymatlarga ega. Jadvaldagi **Z-score** natijalariga ko’ra, tug‘ilish (–0.83 dan –0.63 gacha) va nikoh darajasi (–0.78 dan –0.39 gacha) ko’rsatkichlari o’rtacha darajadan past, bu esa tabiiy o’sishning sekin sur’atlarda kechayotganini bildiradi. Shu bilan birga, migratsiya oqimlari ham past (z_{kelgan} va z_{ketgan} qiymatlari –0.5 atrofida), bu hududlarda aholining joyidan harakatlanish darajasi pastligini anglatadi. Umuman olganda, bu klasterdagi hududlar nisbatan barqaror, ammo demografik faolligi sust bo’lgan mintaqalar sifatida tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval.

1-klasterga mansub hududlar bo’yicha demografik ko’rsatkichlarning standartlashtirilgan (Z-score) qiymatlari va klasterlash natijalari¹⁰

Hududlar	$z_{tugilgan}$	$z_{vafotetg}$	z_{kelgan}	z_{ketgan}	$z_{tuznikoh}$	$z_{ajrashgan}$
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	-0.834	-0.451	-0.304	-0.185	-0.785	-0.957
Buxoro viloyati	-0.684	-0.569	-0.353	-0.310	-0.560	-0.583
Jizzax viloyati	-0.939	-1.242	-0.430	-0.491	-1.037	-0.996
Xorazm viloyati	-0.637	-0.678	-0.286	-0.335	-0.393	-0.847

Ikkinchi klasterga kirgan Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida tug‘ilish va nikoh ko’rsatkichlari ijobiy ($z_{tugilgan}$ 0.5 dan 1.5 gacha, $z_{tuznikoh}$ 0.36 dan 1.5 gacha), bu esa aholining demografik faolligi

¹⁰ Muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari.

yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, migratsiya qiymatlari salbiy (-0.1 dan -0.76 gacha), ya'ni ko'chish oqimlari nisbatan past yoki manfiy yo'nalishda. Bu holat ushbu hududlarda tug'ilish yuqori bo'lsa-da, mehnat migratsiyasi sababli aholi sonining barqaror o'sishiga to'siq bo'layotganini anglatadi. Klasterning umumiy demografik xususiyati – yosh aholining ustunligi va oilaviy barqarorlikning yuqoriligi bilan ifodalanadi (2-jadval).

2-jadval.

2-klasterga mansub hududlar bo'yicha demografik ko'rsatkichlarning standartlashtirilgan (Z-score) qiymatlari va klasterlash natijalari¹¹

Hududlar	z_tugilgan	z_vafotetg	z_kelgan	z_ketgan	z_tuznikoh	z_ajrashgan
Andijon viloyati	0.684	1.061	-0.447	-0.537	0.511	1.015
Namangan viloyati	0.536	0.361	-0.619	-0.763	0.367	0.586
Samarqand viloyati	1.519	1.267	-0.175	-0.091	1.510	0.896
Surxondaryo viloyati	0.608	0.032	-0.285	-0.245	0.484	-0.216
Farg'ona viloyati	1.254	1.074	-0.173	-0.152	1.227	1.027

Uchinchi klaster Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarini qamrab olgan. Ushbu hududlar orasida Toshkent shahri eng yuqori migratsiya qiymatlari ($z_{kelgan} = 3.32$, $z_{ketgan} = 3.27$) bilan ajralib turadi, bu esa poytaxtning kuchli migratsion markaz sifatidagi mavqeini ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida esa tug'ilish yuqori (1.18), lekin ajrashish (-0.15) nisbatan past. Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida barcha ko'rsatkichlarning manfiy qiymatlarda bo'lishi ularning demografik faolligi sustligini bildiradi (3-jadval).

3-jadval.

3-klasterga mansub hududlar bo'yicha demografik ko'rsatkichlarning standartlashtirilgan (Z-score) qiymatlari va klasterlash natijalari¹²

Hududlar	z_tugilgan	z_vafotetg	z_kelgan	z_ketgan	z_tuznikoh	z_ajrashgan
Qashqadaryo viloyati	1.181	0.605	-0.273	-0.004	1.237	-0.153
Navoiy viloyati	-1.374	-1.501	-0.219	-0.250	-1.492	-1.281
Sirdaryo viloyati	-1.498	-1.585	-0.430	-0.577	-1.576	-1.120
Toshkent viloyati	0.116	0.780	0.673	0.668	0.088	0.877
Toshkent shahri	0.067	0.844	3.321	3.273	0.420	1.752

Mazkur natijalarga ko'ra, keltirilgan natijalarga ko'ra, O'zbekiston hududlari demografik ko'rsatkichlar asosida shakllangan uchta klaster orasida sezilarli farqlar mavjud. Birinchi klasterda tug'ilish (-0.994) va nikoh (-0.974) ko'rsatkichlari past bo'lib, o'lim (-1.004) darajasi ham salbiy qiymatga ega. Bu esa tabiiy o'sish sur'atlarining sustligi, aholining demografik yangilanish jarayoni sekin kechayotganini anglatadi. Shuningdek, migratsiya kirim (-0.337) va chiqim (-0.358) qiymatlarining pastligi aholining hudud 2 klasterga nisbatan barqaror joylashganini ko'rsatadi (4-jadval).

¹¹ Muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari.

¹² Muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari.


Har bir klaster markazi bo'yicha demografik ko'rsatkichlarning standartlashtirilgan (Z-score) qiymatlarining taqqoslamasi¹³

Klasterlar	z tugilgan	z vafotetg	z kelgan	z ketgan	z tuznikoh	z ajrashgan
1-klaster	-.994	-1.004	-0.337	-.358	-.974	-.964
2-klaster	.843	.74	-0.186	-.161	.775	.576
3-klaster	.067	.844	3.321	3.273	.42	1.752

Ierarxik klasterlash natijalarini baholashda tanlangan klasterlar sonining optimal ekanligini ilmiy-statistik asoslash zarur. Buning uchun bir nechta mezonlar qo'llaniladi:

Hierarchical clustering natijalari bo'yicha testlar klasterlash modelining ishonchli va asoslanganligini ko'rsatadi. Calinski–Harabasz indeksi (12.40) klasterlararo farqlanish va ichki birlikning optimal darajada ekanini bildiradi. Duda–Hart testi ($Je(2)/Je(1)=0.6925$, $T^2=4.74$) 3 ta klaster hosil bo'lganda xatolikning kamayishini va klasterlar o'rtasida aniq mavjudligini tasdiqlaydi. Pseudo F-statistic (6.75) dispersiyalar nisbati yuqoriligini, Pseudo T^2 (4.74) esa klasterlar farqlarining sezilarli ekanini ko'rsatadi. Silhouette koeffitsienti nazariy jihatdan 0.5 dan yuqori bo'lganda yaxshi klasterlashni ifodalaydi. Umuman olganda, testlar natijasi 3 ta klasterli modelning samarali va statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlaydi.

Dendrogramma tahlilining natijalariga ko'ra, O'zbekiston hududlari demografik ko'rsatkichlari – tug'ilish, o'lim, migratsiya, nikoh va ajrimlar soni asosida uchta asosiy klasterga ajralgan. Ushbu guruhlash "Ward's linkage" usuli asosida amalga oshirilgani bois, har bir klaster ichidagi hududlar o'zaro eng kichik dispersiya (yaqinlik) darajasiga ega bo'lgan (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston hududlarining 12 ta viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrining demografik ko'rsatkichlari asosida ierarxik klasterlash orqali baholovchi dendrogramma¹⁴

¹³ Muallifning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari.

¹⁴ Stata dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi hududlarining demografik salohiyatini baholash uslubi ularni ko‘p o‘lchovli demografik ko‘rsatkichlar asosida klassifikatsiyalash, tipologik guruhlash va har bir hududiy klaster uchun tabaqalashtirilgan demografik strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekiston aholisi demografik jarayonlarining statistik tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda aholi tug‘ilish ko‘rsatkichlari, aholining tarkibiy tuzilishi va migratsiya jarayonlari statistik tahlil qilingan.

Hozirgi davrda ko‘plab iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish darajasining pasayishi natijasida aholining yosh tarkibida qariyalar ulushi keskin oshgan. Bunday davlatlarda qariyalar aholining umumiy sonining 15–30 %ini, bolalar esa nisbatan kamroq qismini tashkil etadi. Aksincha, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aholi tarkibida bolalar salmog‘i yuqori (40–50 % atrofida), qariyalar ulushi esa nisbatan past – 4–7 % oralig‘ida bo‘ladi.

Demografik jihatdan bu holat aholining takror barpo bo‘lish jarayonining kengaygan shaklda kechayotganini anglatadi. Ya’ni yangi avlodlar soni mavjud avlodni to‘liq almashtiribgina qolmay, uni ortiqcha miqdorda to‘ldirib boradi. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, 5-jadval ma’lumotlari O‘zbekiston aholisi tarkibida reproduktiv yoshdagi (15–49 yosh) ayollarning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishini ifodalaydi. Ushbu jadval demografik jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda 2015–2025 yillar oralig‘ida yosh tarkibidagi o‘zgarishlar aniq ko‘rinadi.

Avvalo, 5-jadvaldan ko‘rinadiki, 15–19 yoshdagi ayollar ulushi yil sayin izchil kamayib bormoqda. 2015 yilda bu ko‘rsatkich 13,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilga kelib 11,8 % gacha pasaygan.

5-jadval

O‘zbekistonda reproduktiv yoshdagi ayollarning umumiy sonida alohida yoshdagi ayollar salmog‘i¹⁵, %da*

Yosh guruhi	Yillar										
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
15-19	13,8	13,6	13,4	13,2	13,0	12,8	12,6	12,4	12,2	12,0	11,8
20-24	16,5	16,6	16,7	16,8	16,9	17,0	17,1	17,2	17,3	17,4	17,5
25-29	17,2	17,3	17,4	17,5	17,6	17,7	17,8	17,9	18,0	18,1	18,2
30-34	15,5	15,6	15,7	15,8	15,9	16,0	16,1	16,2	16,3	16,4	16,5
35-39	13,2	13,3	13,4	13,5	13,6	13,7	13,8	13,9	14,0	14,1	14,2
40-44	11,0	11,1	11,2	11,3	11,4	11,5	11,6	11,7	11,8	11,9	12,0
45-49	12,8	12,5	12,2	11,9	11,6	11,3	11,0	10,7	10,4	10,1	9,8
15-49	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Shu bilan birga, 20–24 yosh va 25–29 yosh guruhlar ulushi oshib borayotganini ko‘rish mumkin. Xususan, 20–24 yoshdagilar ulushi 16,5 % dan 17,5 % gacha, 25–29 yoshdagilar esa 17,2 % dan 18,2 % gacha ko‘tarilgan. Bu esa reproduktiv faol davrga kirayotgan ayollar sonining ortib borayotganini anglatadi.

30–34 va 35–39 yosh guruhlarida ham barqaror o‘shish kuzatiladi. Masalan, 30–34 yoshdagilar ulushi 15,5 % dan 16,5 % gacha, 35–39 yoshdagilar esa 13,2 % dan 14,2 % gacha oshgan.

40–44 yosh guruhida ham sekin o‘shish (11,0 % dan 12,0 % gacha) kuzatiladi. Aksincha, 45–49 yoshdagi ayollar ulushi sezilarli darajada kamaygan (12,8 % dan 9,8 % gacha). Bu esa yuqori yosh guruhlarining umumiy tarkibdagi salmog‘i qisqarayotganini ko‘rsatadi.

Tug‘ilish dinamikasiga ayollar yosh tarkibi va ularning alohida yosh guruhlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyentlari ta‘sirini aniqlash maqsadida indeks tizimi uslubi qo‘llanadi. Ushbu usulda tahlil quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$I = \frac{\sum i_1 a_1}{\sum i_0 a_0} \quad (1)$$

bu erda:

i – yosh guruhidagi tug‘ilish koeffitsiyenti;

*i*₀ – boshlang‘ich (taqqoslanayotgan) davr;

*i*₁ – joriy (hozirgi) davr;

a – tegishli davrdagi ayollar yosh tarkibi;

*a*₀ – taqqoslanayotgan davrdagi yosh tarkibi;

*a*₁ – joriy davrdagi yosh tarkibi.

Mazkur (1) formula asosida 2015–2025-yillar uchun olib borilgan hisob-kitoblar natijasiga ko‘ra, tug‘ilishning maxsus koeffitsiyentidagi pasayishning 21,5 %i ayollar yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bilan, 47,3 %i esa alohida yosh guruhlaridagi tug‘ilish intensivligining kamayishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tahlillar ko‘rsatadiki, tug‘ilish koeffitsiyentlari barcha yosh guruhlarida pasaygan, ammo bu jarayon ayniqsa 15–19 va 20–29 yoshdagi ayollar orasida ancha tez sur‘atlarda kechgan.

Tug‘ilish darajasiga ta‘sir etuvchi demografik omillar ichida nikoh jarayoni alohida o‘rin tutadi. Nikoh ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat tarixining muayyan bosqichida shakllangan bo‘lib, ilmiy manbalarda u erkak va ayol o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tartibga solingan, oila va farzandlar bilan bog‘liq munosabatlar tizimi sifatida ta‘riflanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston aholisi demografik jihatdan “yosh” tarkibga ega. Uning yosh-jinsiy piramidasi progressiv tipni ifodalaydi, ya‘ni piramida asosining kengligi bolalar va o‘smirlar ulushining yuqoriligini ko‘rsatadi. Aholining qariyb 30 %ini 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 55–60 %ini esa mehnatga layoqatli yoshdagilar tashkil etadi. Shu bilan birga, demografik yuklama – ya‘ni mehnatga layoqatli aholining har 1000 nafariga to‘g‘ri keladigan mehnatga layoqatsiz yoshdagilar (bolalar va keksalar) soni ortib bormoqda. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy himoya, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rejalashtirishda muhim statistik indikator sifatida qaraladi, ya‘ni:

1. O‘zbekiston aholisi tarkibida yoshlar ulushining yuqoriligi mamlakatning demografik salohiyati katta ekanini ko‘rsatadi, bu esa kelajakda mehnat resurslari ko‘payishi uchun muhim zamin yaratadi.

2. Shu bilan birga, demografik yuklamaning ortib borishi ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlariga tushadigan bosimni kuchaytiradi hamda ularni samarali rejalashtirishni talab etadi.

3. Yosh-jinsiy tarkibdagi farqlar, xususan tug‘ilishda erkaklar ulushining yuqoriligi va keksalar orasida ayollar ustunligi demografik siyosatni ishlab chiqishda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan muhim omillardan hisoblanadi.

Hududiy kesimda aholi zichligi sezilarli darajada farqlanadi. Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlari eng zich joylashgan hududlar sifatida ajralib turadi. Aksincha, Navoiy viloyati hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi zichligi past ko‘rsatkichlarga ega. Urbanizatsiya darajasi hozirda 50 % atrofida shakllanib, yirik aglomeratsiyalarning kengayishi hisobiga bu ko‘rsatkichni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Shaharsozlik jarayonlari, migratsiya oqimlari va iqtisodiy markazlarning shakllanishi urbanizatsiya darajasini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2015 yildan 2025 yilgacha 31022,5 ming kishidan 37543,2 ming kishigacha o‘sgan, ya’ni Bu davrda aholi 6520,7 ming kishiga ko‘paygan. Mutlaq o‘shish 2015 yilda 545,2 ming kishidan boshlangan, 2025 yilda u 700,2 ming kishiga etgan. 2015–2018 yillarda o‘shish nisbatan past ($536,2-545,2 = -9$ ming), 2019–2025 yillarda esa sezilarli tarzda oshgan ($700,2 - 599,1 = 101,1$ ming) (6-jadval).

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni dinamikasi¹⁶

Yillar	Doimiy aholi soni (yil boshiga), ming kishi	Yillik mutlaq ko‘payish, ming kishi	O‘shish sur‘ati, %da (%)
2015	31 022,5	545,2	1,8
2016	31 575,3	552,8	1,8
2017	32 120,5	545,2	1,7
2018	32 656,7	536,2	1,7
2019	33 255,8	599,1	1,8
2020	33 905,2	649,4	2,0
2021	34 558,9	653,7	1,9
2022	35 271,3	712,4	2,1
2023	36 025,0	753,6	2,2
2024	37 298,0	774,9	2,2
2025	37 543,2	700,2	1,9

¹⁶ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida mallif tomonidan tuzilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi ta'kidlashimiz joiz:

1. O'zbekiston aholisi demografik jihatdan "yosh" tarkibga ega bo'lib, progressiv tipdagi yosh-jinsiy piramida bolalar va mehnatga layoqatli aholining yuqori ulushini aks ettiradi. Demografik yuklamaning ortib borishi ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

2. Aholi zichligi Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlarida yuqori, Navoiy va Qoraqalpog'istonda esa past darajada. Urbanizatsiya darajasi 50% atrofida shakllanib, migratsiya oqimlari va iqtisodiy markazlarning kengayishi bu jarayonni muvozanatli boshqarishni talab etmoqda.

3. Demografik rivojlanish O'zbekistonning mintaqaviy etakchiligini ta'minlash bilan birga, strategik siyosat yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat resurslari salohiyatini kengaytirish bilan birga, infratuzilma yuklamasini kamaytirish va urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatli boshqarish demografik barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi.

Aholining yoshi va jinsi haqidagi statistik ma'lumotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatlarini baholashda, uning holati va dinamikasini tahlil qilish uchun muhim bo'lgan ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini bilish orqali istiqbolda tug'ilish va o'lim tendensiyalarini aniqlash, shuningdek, aholining takror hosil bo'lishiga doir ilmiy asoslangan xulosa chiqarish mumkin. Shuningdek, aholining yosh tarkibi asosida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ba'zi muammolarning vujudga kelishi ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlash, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmi, ularga bo'lajak talab va hokazolarni aniqlash mumkin.

O'zbekiston sharoitida migratsiya jarayonlarini statistik jihatdan chuqur o'rganishda an'anaviy ro'yxatga olish va so'rovnomalarga asoslangan usullar etarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois, ushbu tadqiqotda mobil operatorlar hamda transport tizimlari ma'lumotlari asosida ichki va mavsumiy migratsiyani real vaqt rejimida kuzatish usuli ishlab chiqildi. Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Ma'lumot yig'ish – mobil operatorlardan abonentlarning hududiy joylashuv ma'lumotlari va transport tizimlaridan (temir yo'l, avia va avtobus chiptalari) yo'lovchi oqimlari statistikasi olinadi.

2. Ma'lumotlarni tozalash va standartlashtirish – shaxsiy identifikatorlar chiqarib tashlanadi, ma'lumotlar anonimlashtiriladi va hududiy kodlash amalga oshiriladi.

3. Migratsiya oqimlarini aniqlash – ≥ 30 kunlik harakat ichki migratsiya, ≤ 30 kunlik harakat esa mavsumiy migratsiya sifatida tasniflanadi.

4. Migratsiya oqimlari matritsasini shakllantirish – hududlararo oqimlar jadval ko'rinishida tuzilib, donor va akseptor hududlar ajratiladi.

5. Modelga kiritish – gravitatsion model asosida oqimlar baholanadi:

$$M_{ij} = G * \frac{P_i * P_j}{d_{ij}^n} \quad (2)$$

bu yerda:

M_{ij} – i va j hududlar orasidagi migratsiya hajmi;

P_i va P_j – i va j hududlar aholisi soni;

d_{ij} – i va j hududlar orasidagi masofa;

G – doimiy koeffitsient.

6. Real vaqt monitoringi – formulasi asosida migratsiya oqimlari har oy yangilanib, vizualizatsiya (heatmap, oqim diagrammalari) orqali taqdim etiladi.

Mazkur usulning ilmiy yangiligi shundaki, migratsiya jarayonlari faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki sifat tarkibi, hududiy jozibadorlik va infratuzilma omillari bilan birgalikda baholanadi. Amaliy ahamiyat nuqtai nazaridan, ushbu yondashuv Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatiga joriy etilib, migratsiya monitoringi real vaqt rejimida amalga oshirildi. Hududiy demografik yuklama koeffitsientlari dinamik tarzda hisoblanib, qisqa muddatli prognozlar ishlab chiqish imkoniyati yaratildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, migratsiya jarayonlarini statistik o‘rganishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim:

1. So‘nggi o‘n yillikda saldosi manfiy bo‘lib, “aql oqimi” kuchaymoqda. Shu bois, miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan birga sifat tarkibini ham hisobga olish, yuqori malakali kadrlar oqimini kamaytirish va xorijdagi mutaxassislarni qaytarish dasturlarini ishlab chiqish zarur.

2. Propiska tizimi islohidan so‘ng qishloqdan shaharga oqim kuchaydi. Ayniqsa Toshkent aglomeratsiyasiga hududiy muvozanatni ta‘minlash uchun viloyat markazlarida infratuzilma va ish o‘rinlarini kengaytirish lozim.

3. Qishloq xo‘jaligidagi qisqa muddatli ko‘chishlar statistikada to‘liq aks etmayapti. Mobil operatorlar, elektron mehnat daftarchalari va ijtimoiy xizmatlar bazalari asosida real vaqt monitoringini joriy etish zarur.

4. Hozirgi daraja 51% bo‘lib, ko‘p hollarda ma‘muriy qarorlarga asoslangan. UN-Habitat standartlarini joriy etish va “yashirin urbanizatsiya”ni statistik hisobga olish metodologiyasini ishlab chiqish lozim.

5. “Katta Toshkent” aglomeratsiyasi tutash hududlar statistikasi bilan integratsiyalashni talab etadi. Transport, uy-joy va ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish zarur.

6. Migratsiya va urbanizatsiyani chuqur tahlil qilishda gravitatsion model va migratsiya oqimlari matritsasi bilan foydalanish samarali hisoblanadi. Ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib, masofa, ish haqi farqi, infratuzilma va xizmatlar omillarini kompleks hisobga olish, prognozlarda raqamli texnologiyalarni qo‘llash zarur.

Aholining tabiiy va mexanik harakatlanishi va uning barqarorligi ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Jumladan: mamlakatning sanoat rivoji, urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, madaniy va maishiy turmush an‘analari, shuningdek milliy-historik xususiyatlar demografik jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar aholining tug‘ilish darajasi va o‘rtacha umr ko‘rish

muddatiga turlicha ta'sir etib, natijada mehnatga layoqatli aholi sonida o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston aholisining demografik jarayonlarini ekonometrik modellashtirish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlarini statistik baholashda qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlari, qishloq va shahar demografik omillarining tug‘ilish koeffitsientiga ta’sirini panel ma’lumotlar asosida ekonometrik modellashtirish va Respublikamizda aholi demografik jarayonlariga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘p omilli regressiya modellarini ishlab chiqish masalalari o‘rganilgan.

Panel ma’lumotlar bo‘yicha ekonometrik tahlilni boshlashdan avval o‘zgaruvchilarning stasionarligi panel birlik ildizi testlari yordamida tekshirildi. Ushbu testlar natijalari ko‘rsatdiki, qatorlar stasionar bo‘lib, vaqt davomida barqaror kutilmaga ega. Shu sababli, ma’lumotlarni qo‘shimcha transformatsiya qilmasdan Fixed Effects modelini tuzish va demografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug‘ilishning yig‘indi koeffitsientiga ta’sirini baholash imkoniyati yaratildi.

Ushbu regressiya natijalari asosida tug‘ilishning yig‘indi koeffitsientiga demografik omillarning ta’siri Fixed Effects modeli orqali baholandi. 7-jadval tahlili natijalariga ko‘ra, aholi soni ($p=0.047$), nikohdan ajralishlar soni ($p=0.002$) hamda besh yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi koeffitsienti ($p=0.048$) statistik jihatdan ishonchli ta’sir ko‘rsatuvchilar sifatida aniqlangan. Biroq, tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ($p=0.359$) ko‘rsatkichi modelda ahamiyatli emasligi bilan ajralib turibdi. Modelda aholi soni ko‘rsatkichi 10% darajada ahamiyatli bo‘lib ($p=0.001$), uning ijobiy koeffitsienti tug‘ilish darajasiga bevosita musbat ta’sir ko‘rsatayotganini bildiradi.

7-jadval

O‘zbekistonda tug‘ilishning yig‘indi koeffitsientiga ta’sir etuvchi demografik omillarni baholash bo‘yicha Fixed Effects regressiya modeli natijalari¹⁷

Tugilishning yigindi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf Interval]	Sig
Aholi soni	.0001072	.0000545	1.97	.001	-0.00000514 .0002194	***
Nikohdan ajralishlar	.0000443	.0000128	3.47	.002	.000018 .0000706	***
Tugilishda kutilayotgan	-.0483799	.0254617	-1.90	.009	-.1008192 .0040594	**
Besh yoshgacha bolalar	.9304059	.9351588	0.99	.329	-.9955897 2.856401	
Constant	.0001072	.0000545	1.97	.001	-0.00000514 .0002194	***
Mean dependent var	2.702		SD dependent var		0.469	
R-squared	0.898		Number of obs		30	
F-test	52.632		Prob > F		0.000	
Akaike crit. (AIC)	-25.181		Bayesian crit. (BIC)		-18.175	

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

¹⁷ Stata dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu yondashuvlar Fixed Effects regressiyaning demografik tadqiqotlarda metodologik afzalliklarini, jumladan, avtokorrelyatsiyani bartaraf etish va hududiy farqlarni inobatga olish imkoniyatini tasdiqlaydi, ya'ni:

a) Fixed Effects modeli natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi soni, nikohdan ajralishlar soni va besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi tug'ilishning yig'indi koeffitsientiga sezilarli darajada ta'sir etuvchi asosiy demografik omillar hisoblanadi.

b) Aholi sonining ijobiy ta'siri tug'ilish darajasi bilan bevosita bog'liqligini anglatadi, nikohdan ajralishlar va bolalar o'limi ko'rsatkichlari esa oilaviy barqarorlik hamda sog'liqni saqlash omillarining muhimligini ko'rsatadi.

v) Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligining statistik jihatdan ahamiyatsiz chiqishi ushbu omil qisqa muddatli demografik jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatmasligini, balki uzoq muddatli tendensiyalar bilan bog'liq ekanini bildiradi.

Parametrlar to'g'risidagi gipoteza testlari uchun ishlatiladigan t-statistika regressiya chiqishidagi kalkulyator va statistik jadvalning t-kritik qiymati yordamida hisoblash mumkin. Biroq, amaliy tahlilda bu jarayonni qo'lda bajarish ko'p vaqt talab qilishi mumkinligi sababli, Stata dasturi yordamida testning statistik qiymatlari, tanqidiy qiymatlari va p-qiymatlarini tezkor va aniq hisoblab chiqish imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuvda olingan gipoteza muqobil gipotezaga qarshi tekshiriladi, natijada parametrlarning ahamiyatligi ilmiy asosda baholanadi. Shuningdek, t-statistik qiymat va kritik qiymatni birgalikda ishlatib, gipoteza testini qurish va uni grafik yoki jadval ko'rinishida namoyish etish mumkin

Panel model sifatini baholash natijalariga ko'ra, Wooldridge testi (Coef = 0.0023, p = 0.969) qoldiqlarda birinchi darajali avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatdi. Modified Wald testi ($\chi^2 = 0.19$, p = 0.9114) dispersiya bir xil ekanini va modelning gomoskedastik xususiyatini tasdiqladi. Breusch-Pagan LM testi ($\chi^2 = 2.832$, p = 0.0924) panel birliklar o'rtasida korrelyatsiya aniqlamadi, bu ma'lumotlarning mustaqilligidan dalolat beradi.

Quyidagi diagnostik testlar modeli ishonchliligi va qo'llanishga yaroqliligini keng qamrovda tasdiqladi. Jarque-Bera sinovi ($\chi^2(2)=1.84$; p=0.3985) qoldiq atamalar normal taqsimlanganini ko'rsatib, parametr baholarining matematik asoslanganligini va regressiya natijalarining nazariy jihatdan to'g'riligini mustahkamlaydi. Breusch-Godfrey testi ($\text{Chi}^2(1)=0.927$; p=0.3362) modelda avtokorrelyatsiya yo'qligini tasdiqlab, qoldiq atamalar o'zaro bog'liq emasligini bildiradi, bu esa regressiya natijalarining samaradorligini oshiradi va prognoz qilishda xatolik darajasini kamaytiradi. Ramsey RESET testi ($F(3,9)=1.15$; p=0.2889) modelning funksional shakli to'g'ri tanlanganini ko'rsatib, qo'shimcha o'zgaruvchilarni kiritish talab etilmasligini anglatadi, bu esa modelning strukturaviy to'liqligini va ortiqcha murakkablikdan xoli ekanini tasdiqlaydi. Breusch-Pagan-Godfrey testi ($\chi^2(2)=1.27$; p=0.2621) heteroskedastiklik aniqlanmaganini bildiradi, ya'ni qoldiq dispersiyasi barqaror bo'lib, parametr baholari ishonchliligini

ta'minlaydi. Shuningdek, CUSUM va CUSUM of squares grafigi natijalarida chiziqlar chegaradan chiqmaganligi modelning vaqt davomida barqaror ishlashini, uzoq muddatli qo'llanishda ham ishonchlilikni saqlab qolishini isbotlaydi, bu esa amaliy tadqiqotlarda modeldan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va statistik tahlil natijalarining amaliy ahamiyatini oshiradi (8-jadval).

8-jadval

Modelni baholash testlari¹⁸

Test	Qiymatlar	Ehtimollik	Natija
Jarque-Bera normality test	$\chi^2(2) = 1.84$	0.3985	Qoldiqlar normal taqsimlangan ($p > 0.05$)
Breusch-Godfrey serial correlation test	$\text{Chi}2(1) = 0.927$	0.3362	Autokorrelyatsiya yo'q ($p > 0.05$)
Ramsey RESET test	$F(3,9)=1.15$	0.2889	Model shakli to'g'ri tanlangan ($p > 0.05$)
Heteroscedasticity test: Breusch-Pagan-Godfrey	$\text{chi}2(2)=1.27$	0.2621	Dispersiya bir xil (heteroskedastiklik aniqlanmadi)
Cusum plot	Doimiy chiziq chegaradan chiqmagan	–	Model barqaror (stabil)
Cusum of squares plot	Doimiy chiziq chegaradan chiqmagan	–	Model barqaror (stabil)

Umuman olganda, barcha testlar Ushbu OLS modelining statistik jihatdan to'g'ri qurilganini, baholash natijalari ishonchli va ilmiy tahlil uchun yaroqli ekanini ko'rsatadi, ya'ni:

A) Fixed Effects regressiya natijalari demografik jarayonlarda aholi soni, nikohdan ajralishlar va 5 yoshgacha bolalar o'limi tug'ilish ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir etuvchi asosiy omillar ekanini ko'rsatdi, bu esa ushbu modelning hududiy va individual farqlarni aniqlash hisobga olishdagi ustunligini tasdiqlaydi.

B) Diagnostik testlar (Wooldridge, Breusch–Pagan, Jarque–Bera, Breusch–Godfrey va boshqalar) natijalari modelda avtokorrelyatsiya, geteroskedastiklik va spesifikatsiya xatolari mavjud emasligini ko'rsatib, regressiya natijalarining statistik jihatdan ishonchli va barqaror ekanini tasdiqladi.

V) Umuman olganda, qo'llanilgan panel va OLS modellari to'g'ri tanlangan bo'lib, ularning natijalari demografik tahlillar uchun ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan muhim va kelgusidagi tadqiqotlarda foydalanish uchun yaroqli hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan OLS regressiya modeli natijalariga ko'ra, doimiy aholi soniga ta'sir etuvchi asosiy demografik va sog'liqni saqlash omillari statistik jihatdan muhimdir ($R\text{-squared} = 0.972$). Ushbu qiymat modelning yuqori izohlash qobiliyatiga ega ekanini, ya'ni kiritilgan omillar doimiy aholi sonidagi o'zgarishlarning 97.2 foizini izohlab berishini anglatadi. F–testning <0.001 chiqishi esa model umumiy holda statistik ahamiyatli ekanini tasdiqlaydi.

Breusch–Pagan–Godfrey testi ($\chi^2(2)=1.27$; $p=0.2621$) heteroskedastiklik aniqlanmaganini bildiradi, ya'ni xatolik dispersiyasi barqaror. Shuningdek, CUSUM

¹⁸ Stata dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

va CUSUM of squares grafigida chiziqlar chegaradan chiqmaganligi modelning vaqt davomida barqaror ishlashini isbotlaydi. (10-jadval)

Xulosa qilib aytganda, barcha testlar ushbu OLS modelining statistik jihatdan to‘g‘ri qurilganini, baholash natijalari ishonchli va ilmiy tahlil uchun yaroqli ekanini ko‘rsatadi:

A) OLS regressiya natijalari modelning yuqori izohlash qobiliyatiga ega ekanini ko‘rsatdi ($R^2 = 0.972$), ya‘ni tanlangan demografik va sog‘liqni saqlash omillari doimiy aholi sonidagi o‘zgarishlarning asosiy qismini tushuntirib beradi va model umumiy jihatdan statistik ahamiyatli hisoblanadi ($F\text{-test} < 0.001$).

B) Breusch–Pagan–Godfrey testi natijalari modelda geteroskedastiklik mavjud emasligini tasdiqlab, xatoliklar dispersiyasining barqaror ekanini va regressiya baholarining ishonchliligini ko‘rsatdi.

B) CUSUM va CUSUM of squares grafiklari model parametrlarining vaqt davomida barqarorligini isbotlab, umumiy holda OLS modelining to‘g‘ri qurilgani, natijalarning ishonchli va ilmiy tahlil uchun yaroqli ekanini tasdiqlaydi.

O‘tkazilgan diagnostik sinovlar natijalari – qoldiqlarning normal taqsimlangani, avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi va dispersiyaning bir jinslili (gomoskedastiklik) tasdiqlangani – qurilgan regressiya modelining ichki barqarorligini va prognozlash salohiyatining yuqoriligini ko‘rsatadi. Mazkur model demografik jarayonlarga ta‘sir etuvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligi, ta‘sir kuchi va hududiy farqlanish darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi ko‘p omilli regressiya modellariga asoslangan demografik barqarorlik, reproduktiv omillar ta‘siri hamda hududiy demografik sezgirlik indekslarining “past” (0,00 - 0,39), “o‘rtacha” (0,40 - 0,69), “yuqori” (0,70 - 1,00) darajalardagi chegaraviy qiymatlari asoslash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi aholisining istiqboldagi prognozlarini”** deb nomlangan beshinchi bobida aholining tug‘ilish va o‘lim jarayonlarini prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslari, respublikamizda demografik jarayonlarning asosiy indikatorlarini ARIMA modeli yordamida prognozlash, aholi takror barpo bo‘lishining sof ko‘rsatkichlari bo‘yicha istiqbol prognozlarini va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari statistik tadqiq etilgan.

Vaqt qatorlari asosida prognozlash usullari orasida ARIMA modeli o‘zining yuqori aniqligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. ARIMA modeli vaqt qatorlarida mavjud trend, mavsumiylik va tasodifiy tebranishlarni e‘tiborga olgan holda, indikatorlarning istiqboldagi rivojlanishini aniqlash imkonini beradi. Shu bois, ushbu model demografik ko‘rsatkichlarni prognoz qilishning samarali vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda.

ARIMA modeli vaqt qatorlari tahlilida keng qo‘llaniladigan statistik usul bo‘lib, demografik jarayonlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va boshqa dinamik ma‘lumotlar ketma-ketligini modelga solish va prognozlash uchun ishlab chiqilgan. Ushbu modelning tuzilishi uchta asosiy komponentni birlashtiradi: avtoregressiya (AR), ya‘ni qatorning oldingi davrlari ta‘sirini hisobga olish; integratsiya (I), bu stasionar bo‘lmagan qatorni differensiallash orqali stasionar holatga keltirish; va harakatlanuvchi o‘rtacha (MA), qatorning oldingi davrlardagi tasodifiy shovqinlarini inobatga olish.

ARIMA modelining baholash (Estimation) bosqichida tanlab olingan modellar bir nechta statistik mezonlar yordamida har tomonlama tekshiriladi va taqqoslanadi.

a) OLS regressiya modeli natijalari tanlangan demografik va sog'liqni saqlash omillari doimiy aholi sonidagi o'zgarishlarning katta qismini ($R^2 = 0.972$) izohlab berishini ko'rsatib, modelning yuqori izohlash qobiliyati va umumiy statistik ahamiyatga ega ekanini (F-test < 0.001) tasdiqlaydi.

b) O'tkazilgan diagnostik testlar (Breusch–Pagan–Godfrey, CUSUM, CUSUM of squares va boshqalar) modelda geteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya va barqarorlik muammolari mavjud emasligini ko'rsatib, regressiya natijalarining ishonchlilik va ichki barqarorligini tasdiqlaydi.

v) ARIMA modeli asosida olib borilgan prognozlash yondashuvi demografik jarayonlarning kelgusidagi dinamikasini aniqlashda samarali statistik instrument sifatida namoyon bo'lib, olingan natijalar nazariy yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

9-jadval

Modellarni baholash natijalari¹⁹

Mezonlar	Parametrlar	Sigma (σ)	Log likelihood	Akaike (AIC)	Bayesian (BIC)
ARIMA (0,1,0)	$0.05 > 0.003$	27,550.01	-279.4247	562.8494	565.2056
ARIMA (0,1,1)	$0.05 < 0.566$	27,123.97	-279.0659	564.1318	567.6660
ARIMA (1,1,0)	$0.05 < 0.543$	27,108.46	-279.0488	564.0976	567.6317
Optimal variant	ARIMA (0,1,0)	ARIMA (1,1,0)	ARIMA (1,1,0)	ARIMA (0,1,0)	ARIMA (0,1,0)

Tanlangan modelning sodda tuzilishga ega ekani, statistik mezonlar bo'yicha qoniqarli natijalar ko'rsatgani va qoldiqlarning oq shovqin talablari asosida baholanishi uning prognozlash bosqichiga o'tishga to'liq tayyor ekanini ko'rsatadi. Demak, mazkur ARIMA (0,1,0) modeli tug'ilishlar sonining kelgusi yillardagi dinamikasi va o'sish sur'atlarini ishonchli bashorat qilish uchun eng maqbul statistik echim sifatida tavsiya etiladi.

Baholash natijalariga ko'ra, ARIMA(0,1,0) modeli boshqa variantlarga nisbatan afzal deb topildi, chunki uning AIC va BIC ko'rsatkichlari eng quyi darajada, modeli sodda va ortiqcha parametrlar bilan murakkablashtirilmagan, AR va MA parametrlarining statistik ahamiyati yo'qligi esa qo'shimcha komponentlar kiritishning foydasizligini ko'rsatadi. Shu sababli, aynan ARIMA (0,1,0) modelini yakuniy sifatida qabul qilish tavsiya etiladi (9-jadval).

Tadqiqot doirasida tug'ilish, o'lim hamda migratsion (xorijdan ko'chib kelish va xorijdan ko'chib ketish) ko'rsatkichlari ham xuddi tug'ilishlar soni singari

¹⁹ Ushbu modellarni baholash natijalari "Stata" dasturida muallif tomonidan tayyorlandi

“Stata” dasturida ARIMA modellashtirish usuli orqali tahlil qilindi. Har bir demografik ko‘rsatkich – tug‘ilish, o‘lim hamda migratsion (xorijdan ko‘chib kelish va xorijdan ko‘chib ketish) ko‘rsatkichlar miqdori bo‘yicha 2000–2025 yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlar asosida vaqt qatori dinamikasi o‘rganilib, 2026–2029 yillar uchun ishonchli prognozlar ishlab chiqiladi. Tahlillar natijasida tug‘ilishlar darajasiga eng maqbul mos model sifatida ARIMA(0,1,0), o‘limlar ko‘rsatkichi uchun ARIMA(0,1,1) va xorijdan ko‘chib kelganlar soni ko‘rsatkichi uchun ARIMA(0,1,2) va xorijdan ko‘chib ketganlar soni ko‘rsatkichi uchun esa ARIMA(1,1,0) modeli tanlandi.

Tug‘ilganlar soni - ARIMA(0,1,0) modeli tenglamasi:

$$y_t = y_{t-1} + 1994.667 + \varepsilon_t \quad (3)$$

O‘limlar soni - ARIMA(0,1,1) modeli tenglamasi:

$$y_t = y_{t-1} + 1228.052 + \varepsilon_t - 0.4526\varepsilon_{t-1} \quad (4)$$

Xorijdan ko‘chib kelganlar soni - ARIMA(0,1,2) modeli tenglamasi:

$$y_t = y_{t-1} + 178.431 + \varepsilon_t - 0.1701\varepsilon_{t-1} - 0.1949\varepsilon_{t-2} \quad (5)$$

Xorijdan ko‘chib ketganlar soni - ARIMA(1,1,0) modeli tenglamasi:

$$y_t - y_{t-1} = 0.1032(y_{t-1} - y_{t-2}) + \varepsilon_t \quad (6)$$

Ushbu modellar tanlanishida ularning stasionarlik sharti, avtokorrelatsion struktura, qoldiqlarni baholash va diagnostik testlar natijalari asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni:

a) ARIMA modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, tug‘ilish, o‘lim va migratsion ko‘rsatkichlar vaqt qatorlari asosida samarali tahlil qilinib, har bir indikator uchun eng maqbul modellar (ARIMA(0,1,0), ARIMA(0,1,1), ARIMA(0,1,2) va ARIMA(1,1,0)) tanlandi hamda ular orqali 2026–2029 yillar uchun ishonchli prognozlar ishlab chiqildi.

b) Tanlangan ARIMA modellar stasionarlik, avtokorrelyatsiya tuzilmasi, qoldiqlar tahlili va diagnostik testlar asosida asoslangan bo‘lib, ularning har biri tegishli demografik jarayonlarning ichki dinamikasini to‘g‘ri aks ettirishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv nafaqat statistik jihatdan ishonchlilikni ta’minlaydi, balki vaqt qatorlari orqali demografik ko‘rsatkichlarning barqaror tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

